



**YANGI O‘ZBEKISTON VA XITOIY XALQ RESPUBLIKALARI O‘RTASIDAGI
SAVDO-IQTISODIY VA INVESTITSİYALAR SOHASIDAGI
HAMKORLIK ALOQALARINING RIVOJLANISHI**

Tashqo‘lova Dilnoza Turaboy qizi

Aniq va Ijtimoiy Fanlar Universiteti

Tarix yo‘nalishi 2- bosqich magistranti

Annotatsiya: Xitoy Xalq Respublikasi O‘zbekistonning asosiy savdo-iqtisodiy hamkorlaridan biri bo‘lib, ikki mamlakat o‘rtasidagi o‘zaro iqtisodiy-ijtimoiy, madaniy aloqalar ildizlari qadim o‘tmishga borib taqaladi. Xitoy qadimdan Buyuk ipak yo‘li orqali Markaziy Osiyo davlatlari bilan bevosita savdo-iqtisodiy, madaniy va xavfsizlik masalalariga dahldor bo‘lgan munosabatlarni olib borgan. Darhaqiqat, ikki xalq o‘rtasidagi munosabatlar Buyuk ipak yo‘li tarixi bilan uzviy bog‘langan bo‘lib, milliy qadriyat va an‘analar jahon madaniyatini rivojlantirishga ulkan hissa qo‘shgan, savdo aloqalari dunyo ahliga o‘z davrining noyob buyumlarini taqdim etgan. Bugun insoniyatning kundalik ehtiyojlariga aylangan choy, paxta, ipak, qog‘oz kabi mahsulotlar ularning bir qismi, xolos.

Kalit so‘zi: investitsiya, kapitalga investitsiya, import, eksport, strategiya, kapital,

Chet-el investitsiyalari qo‘shimcha moliyaviy manba, yangi boshqaruv tartiblari, yangi texnologiyalar, bilim, ko‘nikmalar va faoliyat yuritish manbai hisoblanadi. Mamlakatimizda so‘ngi besh yillikda savdo-investitsiya shohasida ko‘plab ishlar amalga oshirilib kelmoqda. Investorlarning huquqlarini himoya qilishning yangi kafolatlari ishlab chiqildi, bu boradagi qonunchlik soddalashtirildi, xalqaro va mintaqaviy hamkorlik kuchaytirildi. Buning natijasi o‘laroq, O‘zbekistonda 2021-yilda 11 milliard AQSH dollariga teng miqdorda xorijiy investitsiyalar o‘zlashtirilgan. Ushbu investitsiyaning 9,8 milliard AQSH dollarini asosiy kapitalga investitsiyalar tashkil etgan va bu 2020- yilgi



ko'rsatkichga nisbatan 10% ko'p. Respublikamiz iqtisodiyotiga jami 50 dan ortiq davlatlar investitsiya kiritgan bo'lib, ularning orasida Xitoy (2,2 mlrd. doll.), Rossiya (2,1 mlrd. doll.), Turkiya (1,18 mlrd. doll.), Germaniya (800,7 mln. doll.), Janubiy Koreya (137,4 mln. doll.) yetakchilik qilmoqda. Chet el kapitali ishtirokidagi korxona va tashkilotlarda iqtisodiyotda rasman band aholining 6%i mehnat qilmoqda. Diplomatik munosabatlar o'rnatilganidan beri o'tgan 30 yil mobaynida Xitoy va O'zbekiston o'rtasidagi savdo ko'lami jadal kengayib, ikki tomonlama savdo hajmi 140 barobar oshdi. 2022 yilda ikki tomonlama savdo hajmi 8,92 milliard dollarni tashkil etdi, bu yiliga 19,7 % foizni tashkil etdi va bu O'zbekiston tashqi savdosining 17,8 % foizini tashkil etdi. Ular orasida Xitoy eksporti 6.4 milliard dollarni tashkil etdi, bu yiliga 30 % foizga, Xitoy importi esa 2.52 milliard dollarni tashkil etdi, bu esa yiliga 0.4% foizga kamaydi. Xitoy O'zbekistonning birinchi yirik import manbai va eksport bo'yicha ikkinchi o'rinda turadi [1]. Ikki davlat o'rtasida 2011-yildan boshlab o'zaro savdoda eng qulay davlat rejimi o'rnatildi. O'zlashtirilgan Xitoy sarmoyasi 2017-2022 yillarda 10,9 mlrd dollarni, shu jumladan, 2022 yilda 2,2 mlrd dollarni tashkil etdi.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi va Xitoy Xalq Respublikasi o'rtasida iqtisodiy sohada ikki tomonlama savdo-iqtisodiy munosabatlarni tartibga soluvchi 4 ta asosiy xalqaro shartnoma imzolangan:

1. O'zbekiston Respublikasi hukumati va Xitoy Xalq Respublikasi hukumati o'rtasidagi savdo-iqtisodiy bitim (Toshkent, 02.01.1992);
2. O'zbekiston Respublikasi hukumati va Xitoy Xalq Respublikasi hukumati o'rtasidagi kelishuv investitsiyalarni rag'batlantirish va himoya qilish to'g'risida (Pekin, 19.04.2011 y.);
- 3 O'zbekiston Respublikasi hukumati va Xitoy Xalq Respublikasi hukumati o'rtasida ikki tomonlama soliqqa tortishning oldini olish va daromad solig'ini to'lashdan bo'yin tovlashning oldini olish to'g'risidagi bitim (Toshkent, 03.07.1996 y.);



4. O‘zbekiston Respublikasi hukumati va Xitoy Xalq Respublikasi hukumati o‘rtasida 1996-yil 3-iyuldagi daromad solig‘i bo‘yicha ikki tomonlama soliqqa tortilmaslik to‘g‘risidagi bitimga o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risidagi bayonnoma (Pekin, 18.04.2011yil)

Mamlakatlarimiz o‘rtasidagi manfaatli hamkorlikning huquqiy bazasini bir qancha hujjatlar mustahkamlab turadi. Chunonchi, 2017-yil 12-may kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Xitoy Xalq Respublikasi Raisi Si Szinpin tomonidan imzolangan “O‘zbekiston Respublikasi va Xitoy Xalq Respublikasining har tomonlama strategik sheriklik munosabatlarini yanada chuqurlashtirish to‘g‘risida” qo‘shma bayonot muhim ahamiyatga bo‘ldi.

2017-yil 11-13-may kunlaridagi Shavkat Mirziyoyevning Xitoy Xalq Respublikasiga davlat tashrifi o‘zaro savdo-iqtisodiy munosabatlarini yangi bosqichga ko‘tardi. Mamlakatlarning ikki tomonlama savdo aloqalarini yanada rivojlantirish, investitsiyalar, moliya, transport infratuzilmasi, erkin iqtisodiy va kichik iqtisodiy zonalar barpo etish yo‘nalishlaridagi hamkorlikni rivojlantirish bo‘yicha aniq chora-tadbirlar belgilab olindi.

Bugungi kunda Xitoy O‘zbekiston iqtisodiyotiga eng ko‘p investitsiya kiritayotgan davlatlardan biridir. Xitoy hukumatining imtiyozli va tijorat kreditlari asosida mamlakatimizda elektr energiyasi, neft-gaz, gidroenergiya va kimyo sanoati, havo va temir yo‘l transporti infratuzilmasini modernizatsiya qilish kabi 60 dan ortiq yirik loyihalar amalga oshirilgan.

O‘zbekiston bilan Xitoy o‘rtasidagi munosabatlar kengayishining harakatlantiruvchi kuchi savdo-sotiq va iqtisodiy soha hisoblanadi. Xitoy O‘zbekistonning eng yirik savdo sherigiga aylanib va bu mavqeni so‘ngi bir necha yillikda saqlab kelmoqda. O‘zbekiston Davlat statistika qo‘mitasi ma‘lumotiga ko‘ra, respublikaning Xitoy bilan 2019 yildagi tashqi savdo aylanmasi 7,62 milliard AQSh dollari bo‘ldi. Hozircha Xitoy savdo hajmi bo‘yicha Rossiyadan bir oz oldinda bormoqda. Bugungi kunda O‘zbekiston tashqi savdo aylanmasining 16,8 foizi Xitoy hissasiga to‘g‘ri kelmoqda. Undan keyin Rossiya (14,8



foiz), Qozog‘iston (7,3 foiz), Koreya Respublikasi (5,8 foiz), Turkiya (5,2 foiz), Qirg‘iziston (2,4 foiz) va Germaniya (2,1 foiz) bormoqda.


O‘zbekistonning eng yirik savdo-iqtisodiy hamkori Xitoy hisoblanadi. 2020-yil yakunlariga ko‘ra, ikki tomonlama tovar aylanmasi 6438,3 mln AQSh. dollarni tashkil etgan. Boshqacha qilib aytganda, Xitoyning mamlakatimiz tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 17,8 foizini tashkil qiladi.

2021 yilning yanvar-iyun oylarida Xitoydan O‘zbekistonga 2256,5 mln. AQSh dollari (2020 yilning tegishli davriga nisbatan 10,5% o‘shish). Xitoyning ichki importdagi ulushi 20,6 foizni tashkil etdi.

So‘nggi yillarda O‘zbekistonning tashqi iqtisodiy faoliyatini rivojlantirishga, chunonchi, hududlarda xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi ishlab chiqarish korxonalarini tashkil etishga, eksport salohiyatini oshirishga, xorijiy mamlakatlar bilan hamkorlikni mustahkamlashga va tashqi dunyoda yetakchi o‘rinlarni egallashga katta e‘tibor qaratilmoqda. Shu munosabat bilan O‘zbekiston va Xitoy o‘rtasida do‘stona hamkorlikni mustahkamlash bo‘yicha qator ijtimoiy-iqtisodiy chora-tadbirlar ko‘rildi. Buning natijasi o‘laroq, 2016-2020 yillarda O‘zbekistonning Xitoy bilan tashqi savdo aylanmasi 1,5 barobar oshdi. Mintaqaviy bo‘limda Andijon, Samarqand, Farg‘ona, Xorazm, Surxondaryo, Jizzax va Buxoro viloyatlari Xitoy bilan tashqi savdo aylanmasining sezilarli o‘shishi bilan ajralib turardi (2,3-3,7 baravar)

O‘zbekiston Respublikasi davlat statistika qo‘mitasi ma‘lumotlariga ko‘ra, 2021 yil yanvar oyida Xitoy O‘zbekistonning eksport-import munosabatlarida birinchi raqamli sherik bo‘lib qoldi.

O‘zbekiston va Xitoy tashqi savdo aylanmasida tovarlar va xizmatlar eksportining ulushi 30,1 foizni tashkil etadi, viloyatlar bo‘yicha esa bu ko‘rsatkich Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Surxondaryo, Toshkent, Navoiy viloyatlari va Toshkentda 25 foizdan ko‘proqni tashkil etadi.



O'zbekistondan Xitoyga eksport qilinayotgan mahsulotlarning, asosiy qismini strategik xom ashyo: tabiiy gaz, uran, mis, paxta va mineral o'g'itlar tashkil qilmoqda. Ushbu tovarlar orasida eng muhim esa tabiiy gazdir. Tabiiy gaz bo'yicha 2011-yilda imzolangan ikki tomonlama oldi-sotdi shartnomaga ko'ra, XXRga uni yetkazib berish 25 yilga mo'ljallangan.

O'zbekiston iqtisodiyotida Xitoy bilan hamkorlikning ustuvor yo'nalishlari mamlakatni jahon bozorlariga barqaror va qisqa muddatda kirish, innovatsion rivojlanishni ta'minlaydigan transport-kommunikatsiya loyihalarini amalga oshirishdir. Kelgusida O'zbekiston va Xitoy o'rtasidagi hamkorlik ikki tomonlama savdoni ko'paytirish, sanoat hamkorligini kengaytirish, innovatsion loyihalarni amalga oshirish, transport-kommunikatsiya tizimini shakllantirish va turizm xizmatlarini kengaytirishga qaratilishi kerak.


Eng yirik savdo iqtisodiy hamkorlarimizdan biri bo'lgan Xitoy bilan hamkorlik sohalarini kengaytirgan Toshkent birinchi navbatda sarmoya hajmini oshirishni kutmoqda. Ushbu ko'rsatgichlar bo'yicha yurtimiz hamon qo'shni Qozog'istondan keying o'rinda bormoqda. Respublikamiz 2025-yilga kelib Xitoydan jalb qilinadigan investitsiyalar



hajmini 5 mlrd dollarga yetkazmoqchi. Bazaviy effektning pastligi tufayli Xitoy kompaniyalari yurtimiz bozoriga barcha tarmoqlar bo'yicha kirib bormoqda va ularning ta'siri keng ko'lamli ahamiyat kasb etmoqda. Xitoy korxolarining yurtimizdagi asosiy yo'nalish tarmoqlari sanoat, harbiy va gumanitar sanoat kabi sohalarni o'z ichiga oladi. Xitoyning eng yirik investitsiya maqsadlaridan bazilari quyidagilardir:

Savdo sohasida O'zbekistonning Xitoy bilan Tashqi savdo aylanmasi 2019-yilda 7,62 mlrd AQSH dollarini (2018-yilga nisbatan 18,5 % o'sish) tashkil etgan. Shulardan eksport - 2,52 mlrd dollar (13% ga pasayish), import-5,1 mlrd dollar (o'sish 41 %) ni tashkil etgan. O'zbekiston va horijiy davlatlar o'rtasidagi Tovar ayirboshlash hajmi bo'yicha Xitoy 18,1 % solishtirma og'irlik bilan birinchi o'rinni egalladi. Ikkinchi va uchunchi o'rinlarni 15,7 va 8,0 % lar bilan Rossiya hamda Qozog'iston egallagan .

Ushbu ma'lumotlardan kelib chiqib O'zbekiston hamda Xitoy orasidagi savdo aylanmasi dinamikasi quyidagi ko'rinishda shakllantirish mumkin. (jadval O'zbekiston va Xitoy sarmoyaviy va iqtisodiy hamkorlik yangi asr avlodi 2022-yil 188-bet)



So'ngi yillardagi ijobiy dinamikaga qaramasdan, O'zbekiston uchun bir qator jiddiy havflar ham mavjud bo'lib, ular quyidagilardir:



-o‘zaro savdo balansining hamkorlarimiz foydagiga o‘shishi;

-strategik iqtisodiyotimizning bir qator tarmoqlarida, jumladan, bank, qishloq xo‘jaligi hamda telekommunikatsiya sohalarida Xitoy texnologiyalari ulushining ortib borayotgani;

-Respublikamiz davlat qarzining Xitoy ulushi ooshishi va buning natijasida Xitoy Xalq Respublikasining Respublikamizdagi siyosiy ta‘sirining kuchayishi.

Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligining matbuot xizmati ma‘lumotiga ko‘ra, uchrashuv chog‘ida davlat rahbarining joriy yil may oyida Xitoyga tashrifi doirasida erishilgan kelishuvlarni hayotga tatbiq qilish, shuningdek, ikki tomonlama savdo-iqtisodiy, sarmoyaviy, moliyaviy-texnikaviy hamkorlikni kengaytirish imkoniyati muhokama qilindi.

O‘zaro savdoni rivojlantirish istiqboli ko‘rib chiqildi. Mahsulot va xizmat almashinuvi 2022 yil 8,92 milliard dollarni, 2023 yil birinchi yarmida 5,6 milliard dollarni tashkil etgani bildirildi. Boshqa choralar bilan bir qatorda, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetkazib berishni kengaytirish hisobiga ushbu ko‘rsatkich yanada o‘shishini ta‘minlash maqsadida birgalikdagi sa‘y-harakatni faollashtirish muhimligi ta‘kidlandi.

Xitoyning respublika iqtisodiyotiga kiritgan investitsiyasi o‘shish sur‘ati jadallashib, so‘nggi yillarda 5 barobar ortgani holda 2022 yili 2,2 milliard dollarga yetgani, mamlakatda Xitoy kapitali ishtirokidagi korxonalar soni uch barobar oshgani qayd etildi.

Investitsiya sohasida hamkorlik va sanoat kooperatsiyasi ko‘lamini kengaytirish bo‘yicha aniq chora-tadbirlar belgilandi. Energetika, kimyo sanoati, farmatsevtika, qishloq xo‘jaligi, infratuzilma va transport sohalarida qo‘shma loyihalar joriy etish holati ko‘rib chiqildi.

O‘zbekiston hududlarida Xitoyning yetakchi kompaniyalari ishtirokida qayta tiklanuvchi energetika, transport infratuzilmasini rivojlantirish, sanoat parklari va qishloq xo‘jaligi klasterlarini tashkil etish sohalarida qo‘shma loyihalarni amalga oshirish masalalari e‘tibor markazida bo‘ldi.



Toshkent, Samarqand va boshqa viloyatlarimizning Shinjon-Uygʻur avtonom rayoni bilan, shu jumladan savdo, logistika, tibbiyot, qishloq xoʻjaligi, turizm va taʼlim sohalarida koʻp qirrali hamkorlikni kengaytirish uchun keng imkoniyatlar mavjudligi aytili.

Davlatimiz rahbari oʻzaro muloqot va almashinuvni faollashtirish, tashrif va biznes forumlarini tashkil etish, ustuvor loyiha va dasturlarni ilgari surish boʻyicha alohida “yoʻl xaritasi”ni qabul qilish yuzasidan topshiriqlar berdi.

Davlat statistika agentligining maʼlumotlariga koʻra, 2021 yilda Oʻzbekistonga eng koʻp investitsiya kiritgan davlatlar beshligini sanab oʻtildi

Xitoy — 2,2 mlrd dollar;

Rossiya — 2,1 mlrd dollar;

Turkiya — 1,18 mlrd dollar;

Germaniya — 800,7 mln dollar;

Janubiy Koreya — 137,4 mln dollar.

2021 yil yakuniga koʻra, oʻzlashtirilgan xorijiy investitsiyalar hajmi 11,1 mlrd dollarni tashkil etib, yillik prognozga nisbatan 113 foizga bajarilgan. Shu jumladan, asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar 9,8 mlrd dollarga yetgan (2020 yil koʻrsatkichlariga nisbatan oʻsish surʼati 110 foiz).

Oʻtgan yillar davomida xitoylik sarmoyadorlar Oʻzbekiston iqtisodiyotiga qariyb 7,8 milliard dollar miqdorida investitsiya kiritgan.

Xitoy Eksimbanki, Xitoy Davlat taraqqiyot banki va Xitoy sanoat va tijorat banki orqali Oʻzbekistonga berilgan kreditlarning umumiy portfeli 6,9 milliard dollardan oshadi.

2023 yilning yanvar-iyun oylarida Oʻzbekistonda asosiy kapitalga oʻzlashtirilgan investitsiyalar hajmi 139,1 trln soʻmni tashkil etgan.

Statistika agentligi maʼlumotlariga koʻra, shundan asosiy kapitalga oʻzlashtirilgan jami xorijiy investitsiya va kreditlar 59 trln soʻm miqdorida qayd etilgan.

Oʻzlashtirilgan jami xorijiy investitsiya va kreditlar hajmida eng yuqori ulushga ega boʻlgan investor – mamlakatlar orasida Xitoy birinchi oʻrinni egallab turibdi – 20,5 foiz.



Markaz tahliliga ko‘ra, 2023- yili O‘zbekistonning Xitoy bilan tovar ayirboshlash hajmi 51,5 foizga o‘shib, 13,7 milliard dollarni tashkil etdi. Bunda eksport hajmi 2,5 milliard dollar, import 11,3 milliard dollarga yetgan. Markaz Xitoydan import ulushi qariyb 75,2 foizga o‘sganini qayd etgan.

“2023-yilda Xitoydan importning asosini mashina va uskunalar, sanoat tovarlari va kimyoviy moddalar tashkil qildi”, — deya qayd etgan markaz.

Umuman olganda, 2023-yil yakunlari bo‘yicha O‘zbekistonning umumiy tashqi savdo aylanmasida Xitoyning ulushi 21,9 foizni tashkil etgan. Shundan jami eksportning 10,1 foizi, importning 29,5 foizi Xitoy hissasiga to‘g‘ri kelgan.

Statistika agentligi hisobotida ikki davlatning 2022-yildagi tovar aylanmasi hajmi 9 milliard dollarni tashkil etgani keltirilgan. Bunda O‘zbekistonning eksport ulushi 2,6 milliard dollar, importi esa 6,4 milliard dollar bo‘lgan.

2023 yilning yanvar-iyul oylarida O‘zbekiston tashqi savdo aylanmasida eng yuqori ulushga ega bo‘lgan top-10 davlat:

Xitoy – 6,9 mlrd dollar;

Rossiya – 5,3 mlrd dollar;

Qozog‘iston – 2,5 mlr dollar;

Turkiya – 1,9 mlrd dollar;

Koreya – 1,3 mlrd dollar;


Qirg‘iziston – 632,2 mln dollar;

Germaniya – 609 mln dollar;

Fransiya – 518 mln dollar;

Turkmaniston – 492 mln dollar;

Afg‘oniston – 471 mln dollar.



Tashqi iqtisodiy faoliyat bo‘yicha 20 ta yirik hamkor davlatdan faqatgina uchta mamlakat – Afg‘oniston, Qirg‘iziston va Tojikiston bilan ijobiy tashqi savdo balansi kuzatilgan. Qolgan 17 ta davlat bilan passiv tashqi savdo balansi saqlanib qolgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. An Analysis of the Structure of Trade Between China and Uzbekistan150 Cao Gang, PhD Candidate
2. https://nrm.uz/contentf?doc=17571_torgovo
3. <https://lex.uz/ru/docs/1993918>
4. <https://lex.uz/docs/2471678?ONDATE=03.07.1996>
5. <https://lex.uz/docs/1994659?query=%D0%BD%D0%B0%D0%BB%D0%BE%D0%B3>
6. stat.uz